

## Litsenziya talablari va shartlari

- yuridik shaxs-litsenziya talabgorining doimiy shtatida kamida ikkita xodimning (ishlarning rahbari va bajaruvchi) mavjud bo'lishi kerak;

- ishlarning rahbari va bajaruvchi maxsus tayyorgarlikka va tegishli ixtisoslik (yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish) bo'yicha kamida uch yil ish stajiga ega bo'lishi kerak;

- xodimlar quyidagi malakalar bo'yicha ma'lumotga va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak:

a) loyihalashtirish:

ishlarning rahbari va bajaruvchisi "Muhandislik" (elektrotexnika, elektronika, elektromexanika, radiotexnika, telekommunikatsiya, informatika va axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish va boshqarish, muhandislik kommunikatsiyalarini qurish, yong'in xavfsizligi, shuningdek, yong'inni o'chirishning suvli qurilmalari uchun — suv ta'minoti va suv chiqarish inshootlari) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

b) yong'indan darak berish, qo'riqlash signalizatsiyalarini, qo'riqlash-yong'indan saqlash va yong'in haqida xabar berish signalizatsiyalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish:

ishlarning rahbari "Muhandislik" (elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lishi kerak;

ishlarni bajaruvchilar elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya yo'nalishlari bo'yicha 3-razryaddan past bo'lmagan tegishli malaka bo'yicha oliy, kasb-hunar-texnik ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak;

v) yong'inni o'chirish (suvli, gazli, kukunli va boshqa) qurilmalarni montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish:

ishlarning rahbari "Muhandislik" (elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lishi kerak;

ishlarni bajaruvchilar quyidagi yo'nalishlar: qo'lda payvandlovchi elektr payvandlovchi (gaz bilan payvandlovchi) 5-razryaddan past bo'lmagan, sanitariya-texnik uskunalarni montaj qiluvchi (sanitariya-texnik tizimlar va asbob-uskunalarini montaj qiluvchi) 4-razryaddan past bo'lmagan, qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari elektromontyori (elektr asbob-uskunalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor, aloqa apparatlari va qurilmalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor, radioelektron apparatlar va priborlarni montaj qiluvchi) 3-razryaddan past bo'lmagan, avtomatik nazorat qilish, rostlash va boshqarish priborlari, apparatlari va tizimlarini sozlovchi (nazorat-o'lchov priborlari va avtomatika sozlovchisi) 5-razryaddan past bo'lmagan tegishli malaka bo'yicha oliy, kasb-hunar-texnik ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

- litsenziya talabgorida ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi

va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza mavjud bo'lishi kerak;

- litsenziat yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasidagi qonun hujjatlariga, normativ hujjatlar va standartlar talablariga rioya etishi kerak;

- qonun hujjatlariga muvofiq sertifikatlangan yong'inga qarshi avtomatika vositalari, qo'riqlash signalizatsiyalari, yong'indan darak beruvchi, qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari vositalari va tizimlaridan foydalanishi kerak;

- yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari vositalarini montaj qilish loyihalarining hisobini olib borish va ularni ishlatishning butun davrida loyihalarning (yoki ularning nusxalarining) saqlanishini ta'minlashi kerak;

- litsenziat obyektlarda o'rnatilgan yong'inni o'chirish qurilmalari, qo'riqlash signalizatsiyalari, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari to'g'risidagi axborotlarning, shuningdek, obyektning qo'riqlash va uning xavfsizligini ta'minlash tizimi to'g'risida litsenziyalanadigan faoliyatni amalga oshirish jarayonida ma'lum bo'lib qolgan boshqa ma'lumotlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning ko'rilishi kerak;

- Litsenziyalanadigan faoliyatni amalga oshirishda:

ilgari sudlangan va qasddan jinoyat sodir etganligi uchun muddati o'talmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning;

ruhiy kasalliklar, giyohvandlik, toksikomaniya, alkogolizm yuzasidan hisobda turuvchi shaxslarning ishga yollanishiga yoki jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

- Litsenziyalovchi organ va litsenziat o'rtasida tuziladigan litsenziya bitimida ushbu Nizomning 8-bandida sanab o'tilganlardan kelib chiquvchi aniq litsenziya talablari va shartlari nazarda tutilishi mumkin.